




O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI
MAQOMI BERILGANLIGINING
35 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN

“FILOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM”

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

MATERIALLARI



Shuningdek, *suhbatni davom ettirishni istamaslik, sukut bilan berilgan savolga sukut bilan javob qaytarish, ichki g'azabni bosish, sarosimalik, aytilayotgan yoki aytilgan gap yolg'onligini sezib turish*, ba'zan so'zlovchi yoki tinglovchi diskurs jarayonida o'zi istagan yoki istamagan holda sukut saqlab, qaysidir ma'noda, muloqot madaniyati meyorlaridan chetga chiqmasligi yoki ularni buzishi ham mumkin.

Ko'rinadiki, inson nutqi nihoyatda murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning juda ko'p jihatlarini yozuvda berish imkoniyati bo'lmaydi. Til informatsiyasining to'la manzarasini namoyon qilish uchun esa nutqning barcha tomonlarini kompleks ravishda tekshirish zarurati seziladi. Zero, nutq jarayonida ishtirok etayotgan barcha vaziyat kompleksi muloqot fragmentining to'liq va haqiqiy ma'nosini ochib bera oladi.

Adabiyotlar

1. Vanderveken D. Meaning and Speech Acts.—Cambridge university press, 2009. — P. 137.
2. De Saussure, F. Course in General Linguistics. Columbia: University Press, 2011. — P. 260.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1-жилд. — Тошкент, 2012. — 301 б.
4. Юлдашева Д. Нуткий мулоқотда сукутнинг ўрни //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. — 2020. — №. 1.
5. Yuldasheva D. N. Silence is an expression of inner speech //AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (ISSN (E): 2993-2769). — 2023. — T. 1. — №. 10. — C. 230-234.
6. Rajabov D. Z. The role of images in the artistic structure of uzbek folk songs //Middle European Scientific Bulletin. — 2021. — T. 12. — C. 120-128.
7. Hamroyeva M. R. LEBY LAYERS OF NAMES USED IN THE ARTISTIC WORKS OF TAHIR MALIK //Innovative Development in Educational Activities. — 2023. — T. 2. — №. 9. — C. 367-373.

2-SHU'BA. O'ZBEK TILSHUNOSLIGINI O'QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA INTEGRATSIYA

TURIZM SO'ZLARI HAQIDA

Adizova Nilufar Istamovna

BuxDU Filologiya fakulteti

O'zbek tilshunosligi va jurnalistika
kafedrası dotsenti(v.b.), f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan bo'lib, u fransuzchada *our* — sayr, sayohat ma'nolarida qo'llanadi. Ushbu maqolada turizm sohasida qo'llanadigan birliklar tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: *turizm, madaniy obyektlar, ziyorat turizmi, sayohat, ichki turizm, ekoturizm, gastronomik turizm*

Har qanday davlat, millat o'zining boy o'tmishi, farovon turmushi, mustahkam iqtisodiyoti, taraqqiy etayotgan sanoati bilan dunyo hamjamiyatida bo'y ko'rsatishga intiladi. Jumladan, O'zbekiston ham zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga

ega. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan vatanimiz qulay tabiiy iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va, ayni paytda, ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega. Bugungi kunda bu kabi milliy-madaniy jihatlarga, tarixiy manbalar, osori atiqalarga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Shularni inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida shu paytga qadar turizm sohasiga oid qator farmon va qarorlar qabul qilindi: dastlabki me'yoriy hujjat bu – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil, 27-iyuldagi "O'zbekturizm" MK (Milliy Kompaniya) ni tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining shu yil 20-oktabrdagi "O'zbekturizm" MK faoliyatini tashkil etish masalalari haqida"gi qaroridir [7,29].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil, 15-aprelda millatlararo aloqalarni kengaytirish va mustahkamlashga ko'maklashish hamda xalqaro turizm bozoriga uzviy qo'shilish, O'zbekistonning madaniy-tarixiy va ma'naviy merosini jahon hamjamiyatiga targ'ib qilish, shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro andozalar darajasiga ko'tarish maqsadida "2005-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni, turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, mamlakatimizga tashrif buyurayotgan sayohatchilar sonini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan 1999-yil, 20-avgustda "Turizm to'g'risida"gi Qonun [Mirzayev,2011;33], 1996-yil, 21-noyabrda O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy fuqarolarning va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kelishlari, ketishlari, bu yerda bo'lishlari va transit o'tishlari tartibi to'g'risida"gi Qarori [7,32]. va boshqa shu kabi qator muhim hujjatlar mamlakatimiz turizm sohasini yaxlit bir tizimda taraqqiy etishini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi "Turizm to'g'risida"gi Qonunida turizm so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: **turizm** – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy – amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi (sayohat qilishi)dir (3-modda).

Xalqaro doirada 1991-yil Ottava(Kanada)da bo'lib o'tgan Butunjahon turistik tashkiloti sayohat va turizm statistikasi bo'yicha konferensiyada "turizm"ga "odatdagi muhitdan tashqarida dam olish, ishga aloqador va boshqa maqsadlarda bir yildan ko'p bo'lmagan davrda qilingan sayohat va muayyan joylarda bo'lish orqali amalga oshirilgan shaxs faoliyati", deb ta'rif berilgan[6,5].

Ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda turizmning ilk uchqunlari dastlab, antik va undan keyingi davrlardan boshlangan bo'lib, asosiy sayohatchilar olimlar, savdogarlar, badavlat kishilar, elchilar bo'lgan. Ular yangi-yangi yerlarni o'zlashtirish, moddiy manfaatdorlik, to'kin va farovon hayotni izlash bahonasida dunyoning eng rivojlangan sivilizatsiya markazlari, iqlimi, tabiati go'zal bo'lgan joylari, yuksak madaniyatga ega davlatlarga sayohatlarni amalga oshirganlar.

Turizm fransuzcha so'z bo'lib, *our* — sayr, sayohat ma'nolarida qo'llangan bo'lib, sayyohlik — sayohat (safari) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Dunyo turizmining tarixi XIX asr boshlariga borib taqaladi. Dastlab Angliyadan Fransiyaga uyushgan sayyohlik tashkil etilgan(1815). Turizmning asoschisi hisoblanmish ingliz ruhoniysi Tomas Kuk 1843-yilda 1-temir yo'l sayyohligini tashkil qildi. Shundan so'ng u o'zining xususiy turistik korxonasini tuzdi va 1866-yilda dastlabki sayyohlik guruhlar AQShga jo'natildi. Sharqda arab sayyohi Ibn Battuta 21 yoshida sayohatini boshlab, deyarli barcha Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarini piyoda kezib chiqdi.

Movarounnahrda ilk sayyohlarning safarlari Amir Temur va Temuriylar davrida faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan doimiy aloqada bo'lgan. Uning elchisi 1403-yili Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning "Buyuk Temurning hayoti va faoliyati" kitobida Movarounnahrda ijtimoiy hayot va sayyohlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan bo'lib, bu kabi sayohatlar sayohatlarni uyushtiruvchi muayyan tashkilotlar orqali maxsus sayyohlik marshrutlari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekistonda turizm sohasiga rahbarlikni "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi (27-iyul, 1992-yilda tuzilgan) olib boradi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm infrastrukturasini

rivojlantirish, chet el sarmoyasini jalb qilib zamonaviy turistik komplekslarni barpo etish, yangi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqish, xizmatlar doirasini kengaytirish va boshqalardan iborat.

"O'zbekturizm" milliy kompaniyasi sayohat qilish turiga qarab quyidagi turistik yo'nalishlarni ishlab chiqqan: **klassik yo'nalish** (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva; Toshkent, Samarqand, Buxoro, Shahrissabz). Bu yo'nalish eng qadimiy yodgorliklar va boshqa tarixiy madaniy obidalariga tashrif bilan bog'liq; **ekologik turizm yo'nalishi** (Chimyon, Chorvoq dam olish va davolanish oromgohi, Zomin qo'riqxonasi, Navoiy Sarmishsoy dam olish maskani, Nurato ziyoratgohi, Buxoro viloyatidagi qo'riqxonalar va boshqalar). Bu yo'nalish alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va sayyohlar uchun ekologik jihatdan qulay hamda foydali hisoblanadigan joylarga tashrif bilan bog'liq; **arxeologik turizm yo'nalishi** (Qoraqalpog'iston, Surxondaryo, Samarqand, Buxoro hududlari bo'ylab). Bu yo'nalish O'zbekistonning eng qadimiy topilmalari va arxeologik qazishmalar olib borilayotgan joylari bilan tanishishni maqsad qilib qo'yadi. **Tarixiy, diniy turizm yo'nalishi** (Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrissabz, Qo'qon bo'ylab) tarixiy, diniy obidalarini sayohat va ziyorat qilish.

Turizm tashkilotlarini takomillashtirish hamda kichik va o'rta turistik korxonalarining xizmat ko'rsatish bozorini faollashtirish, shuningdek, xorijiy sarmoyani turizm sohasiga jalb qilish maqsadida O'zbekistonning Buxoro, Xiva, Samarqand, Toshkent kabi shaharlari va boshqa joylarida sayyohlik uyushmalari, departamentlari, xususiy sayyohlik tashkilotlari tashkil etildi. Tarixiy shaharlar, ekologik jihatdan qulay hududlarda ko'plab xususiy mehmonxonalar, dam olish maskanlari bunyod etildi. Masalan, Chorvoq, Chimyon, Beldersoy, Sarmishsoy, Nurato, Miraki, Amirsoy, To'dako'l, Aydarko'l kabi yuzga yaqin dam olish maskanlari ko'plab mahalliy hamda chet ellik sayyohlarni qabul qilib, ularga xizmat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekistonda sayohat va dam olishning barcha turlarini *sport, etnik, yoshlar, ekologik, gastronomik, tibbiy, madaniy, ziyorat, adabiy, qishki, velosport* va boshqa turizm turlariga bo'lish mumkin. Ularning ayrimlari mavsumiy bo'lib, O'zbekistonga kelgan sayyohlar o'z maqsadlari va rejalariiga muvofiq yolg'iz, do'stlari, oilasi bilan yoki oldindan rejalashtirilgan marshrut bo'ylab qiziqarli, hayajonli joylarga olib boradigan gid bilan sayohat qiladilar.

Yurtimizda turizm, asosan, uchta asosiy tur bo'yicha amalga oshiriladi: *kirish, chiqish va ichki turizm*. Kirish va ichki turizmga asosiy va maxsus turistik mahsulotlar kiradi: turistik diqqatga sazovor joylarga ekskursionlar; mehmonxonalar, dam olish maskanlari, kurortlar, sanatoriylar, sayyohlik qishloqlari, uy-lagerlar, lagerlarga joylashtirish; milliy taomlar va ularni tatib ko'rish; festivallar va bayram tadbirlarida ishtirok etish va boshqalar. Bugungi kunda O'zbekistonda turizmning rang-barang turlari mavjud bo'lib, ularning rivojlanishi uchun alohida e'tibor ko'rsatilmoqda: *sarguzasht turizmi, agroturizm, madaniy turizm, ekoturizm, tibbiy turizm, diniy turizm, sport turizmi, etnik turizm, yoshlar turizmi, gastronomik turizm, ziyorat turizmi, badiiy turizm* va boshqalar.

Sarguzasht turizmi sayohatchilar kutilmagan hodisalarni ko'rishlari mumkin bo'lgan uzoq joylarni o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu yangi madaniyat yoki yangi landshaft bilan bog'lanishni va ayni paytda jismoniy faollikni o'z ichiga oladi. Sarguzasht turizmining ba'zi turlari kunduzgi yurish, velomarafon, tog'da chang'i uchish, qorga chiqish, kanatda sayr qilish kabilarni o'z ichiga oladi...

Agroturizm, odatda, fermer xo'jaliklarida amalga oshiriladi. Bu sayohatchilarga qishloq hayotini boshdan kechirish, mahalliy taomlarni tatib ko'rish va turli dehqonchilik vazifalari bilan tanishish imkoniyatini beradi. Ushbu turdagi turizm Italiyada fermer xo'jaligi deb ham ataladi.

Madaniy turizm. Agar ma'lum bir joyga tashrif buyurishdan maqsad uning tarixi va madaniyatini bilish bo'lsa, ushbu turdagi turizm madaniy turizm deb nomlanadi. Sayohatchilar mamlakat aholisining hayot tarzi, diniy madaniyati, shug'ullanadigan mashg'ulotlari, marosimlari, an'ana va qadriyatlarini bilan yaqindan tanishish va boshqa holatlarni ko'rishi asosida yuzaga keladi. Ular ma'lum bir mamlakatning turli xil diqqatga sazovor joylariga tashrif buyurishlari ham mumkin yoki ular faqat bitta hududga e'tibor qaratishni tanlashlari ham mumkin. Sayyohlar marosimlar va festivallar kabi tegishli tadbirlarni ko'rishni juda yaxshi ko'rishadi. Shuning uchun chet ellik sayyohlar uchun yurtimizda maxsus tadbirlar, festivallar, modalar namoyishlari tashkil etiladi.

Ekoturizm, ko'proq, tabiiy hududlarga tashrif buyurish, tabiiy iqlim sharoitlari qulay, go'zal, suvli joylarga borish, qimmatbaho toshlar izlash kabilarni o'z ichiga oladi. Bu atrof-muhitni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonning tabiiy zonalari cho'l va tog'lardan iborat. Qulay iqlim va geografik joylashuv mamlakatimizning har bir hududida agroturizm fermer xo'jaliklari, ekomarkazlar va tabiiy hududlarni tashkil etish imkonini beradi. Xorazm viloyatining agroturistik xo'jaliklari, Sirdaryo viloyatidagi ovchilik markazi – Qalgansir, Qoraqir ko'lidagi ekoturizm markazi, Sayxun, Qorovulbozor qo'riqxonalaridagi to'qayzorlar va boshqalar shular jumlasidandir. Dunyodagi eng yaxshi ekoturizm yo'nalishlari qatoriga Alyaska, Amazonka, Antarktida, Avstraliyaning Moviy tog'lari, Borneo, Botsvana, Kosta-Rika, Dominika, Galapagos orollari va Himolay tog'lari kiradi. Biroq O'zbekistonda ham bu kabi sayyohlarni jalb qiladigan, ularni mahliyo etadigan joylar juda ko'p. Masalan, Miraki, Chorvoq, Amirsoy, Sarmishsoy, To'dako'l, Parkent, Oqtosh, Urgut, Hisor kabi dam olish maskanlari shular jumlasidan.

Tibbiy turizm deganda davolanish uchun boshqa davlatga borish yoki mamlakatda profilaktik davolanish maqsadida dam olish tushuniladi. Rivojlangan mamlakatlardan odamlar arzon narxlarda davolanish uchun rivojlanayotgan mamlakatlarga boradilar. Dunyodagi mashhur tibbiy turizm yo'nalishlari Hindiston, Malayziya, Braziliya, Tailand, Meksika, Kosta-Rika, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapurdir. Shuningdek, O'zbekistonda ham sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish va yaxshi dam olish imkonini beradigan sanatoriylar ko'paydi. Ularning aksariyati butun organizmning faoliyatini davolash va yaxshilash uchun tabiiy vositalar bilan mashhur bo'lgan kurort hududlarida joylashgan. Toshkent, Jizzax, Surxondaryo, Buxoro(Moxi-Xosa) va respublikaning boshqa viloyatlaridagi sanatoriylar shular jumlasidandir.

Diniy turizm, shuningdek, e'tiqod turizmi muqaddas joylarga alohida yoki guruh bo'lib sayohat qilishni anglatadi. Bu joylarga madaniy, tarixiy va diniy ahamiyatini bilmoqchi bo'lgan diniy e'tiqodsiz sayyohlar ham tashrif buyurishadi. Dunyodagi mashhur diniy yodgorliklar, manzilgohlarga borish bilan bir qatorda, mamlakatimiz bo'ylab ham ziyorat qiladigan joylar juda ko'p. Masalan, Makka-yu Madinaga haj va umra ziyoratlariga, Buxorodagi Yetti Pirni ziyorat qilish, Istambuldagi Ayo Safiya ibodatxonasi yoki Ahmedxon masjidi, Sulaymoniya madrasasini, Samarqanddagi Bibixonim madrasalarini ko'rishni xohlamaydigan insonni topish qiyin.

Sport turizmi sport musobaqasini kuzatish yoki ishtirok etishni o'z ichiga oladi. Bu eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri. O'zbekistonda sportni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro maydonda erishilayotgan yuksak sport yutuqlari, mamlakatimizda ko'plab sport inshootlari mavjudligi buning dalilidir. Bugungi kunda ularning soni 50 mingdan ortiq. Jumladan, "Humo Arena", "Paxtakor", "Milliy" stadionlar, tennis kortlari, ot sporti klublari, muz maydonchalari va boshqalar. Sport turizmi, shuningdek, sport tadbirlari turizmi, mashhur va faol sport turizmi kabi tasniflanadi. Odatda, sayyohlar Olimpiya o'yinlari, FIFA Jahon kubogi, F1 Granprisi, tennis bo'yicha Jahon chempionati, BWF Jahon chempionati va Kriket bo'yicha Jahon kubogi kabi tadbirlarga jalb qilinadi.

Umuman olganda, sayohatlar diqqatga sazovor joylarga tashrif buyurish, yaxshi dam olish, aqliy va jismoniy kuchni tiklash, mahalliy madaniyat bilan tanishish, bayram, ko'ngilochar yoki sport dasturlari, tadbirlarda ishtirok etish, ko'rgazma va yarmarkalarga tashrif buyurish, kundalik, maishiy buyumlar, noyob mahsulotlar va suvenirnlarni xarid qilish asosida bo'lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Ahmedov A. R. et al. Some Feedback About Linguistic Knowledge //Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 125-131.
2. Adizova N. ERKIN VOHIDOV DOSTONLARIDA FRAZEOLIK BIRLIK LARNING QO'LLANISHI //FILOLOGIYA UFQLARI JURNALI. – 2021. – T. 6. – №. 6.
3. Aminovna A. G. Ethno-cultural issues in "thousand and one nights" //Conferencious Online. – 2021. – C. 84-85.
4. Bozorova, G. (2023). ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПЛЕОНАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ИСПОЛЗУЕМЫХ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ РЕЧИ. *Центр Научных Публикаций* (buxdu.Uz), 34(34). извлечено от https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/9752

5. HAMROYEVA M. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INNOVATSION YONDASHUV //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 1. – №. 1.
6. Istamovna A. N. Leksik birliklarning milliy o'zlik ruhini ifodalashdagi roli (Erkin Vohidov dostonlari asosida) //Conferences. – 2021.
7. Avliyoqulova L. PSIXOLOGLAR NUTQIGA XOS TIBBIY BIRLIKLARNING AYRIM LISONIY XUSUSIYATLARI //Central Asian Academic Journal of Scientific Research. – 2022. – T. 2. – №. 4. – C. 286-290.
8. Zuxro J. GENDERING NUTQIY IFODASI VA UNING PRAGMATIK TASNIFI //MASTERS. – 2024. – T. 2. – №. 4. – C. 164-169.

BADIIY USLUBDA PERIFRAZALAR

Ahmadova U. Sh.,
BuxDU dotsenti, f.f.f.d. (PhD),
Barotova S.M.,
BuxDU talabasi

Annotatsiya. Maqolada badiiy uslubning nasriy va nazmiy shakllarida qo'llangan perifrastik birliklar tahlili amalga oshirilgan bo'lib, til va nutqni boyituvchi, badiiy uslubning asosiy komponenti ekanligi dalillangan.

Kalit so'zlar: *uslub, badiiy uslub, o'zbek tili, perifraza, til, nutq*

Perifraza badiiy uslubning asosiy unsuridir. Chunki unda badiiylik bo'yog'i turadi. O'zbek tilshunosligida R.Q.Qo'ng'urovning "O'zbek tilining tasviriy vositalari", Ravshanxo'ja Rasulov, Ernest Begmatov, Ibrohim Yo'ldoshev, Saodat Muhammedovalar hammuallifligidagi "O'zbek tili tasviriy ifodalarining izohli lug'ati", S.A.Karimov "Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari" nomli risolasi, E.Ibragimova "Badiiy tasvir vositalarining nomlanishi xususida ba'zi mulohazalar" nomli maqolasi, M.Sodiqova, B.Yo'ldoshev, Sh.Shoabdurahmonov, R.Normurodov, B.O'rinboyev, A.Rustamov, L.Shukurov, M.To'ychiyev, T.Jo'rayev, R.Suvonova, A.Pardayev, D.O'rinboyeva kabi olimlarning tadqiqotlarida bu birlik badiiy uslubning bir qismini boyituvchi asosiy birlik sifatida tahlil qilingan hamda xulosalangan. O'zbek tili badiiy uslubining shakllanishi va taraqqiyotida adabiyotimizdagi har bir janr, har bir badiiy san'at – tasviriy vositalarning alohida o'rni va xizmati bor. Ijod mahsuli sifatida tilda yangi tasviriy vositalar paydo bo'ladi, faol muomalaga kiradi, ekspressivligini yo'qotishi bilan ma'nosi kengaygan til materialiga aylanib qolaveradi. Shu tariqa jarayon uzluksiz davom etadi. Agar bu vositalar faqat alohida olingan ijodkor qalamigagina mansub bo'lsa, ohori to'kilmagan holda, badiiy ijodning nodir namunasi sifatida yashayveradi. Chunki, perifraza uzoq tarixda ham, publitsistik uslub rivojlanmagan va taraqqiy etmagan davrda ham, oddiy aholi o'rtasida so'zlashuv uslubi, nutq madaniyati shakllanmagan bir davrlarda ham badiiy asarlarda o'z o'rniga ega bo'lgan asosiy lisoniy birlik sanalgan. Badiiy asarlar tilida ko'plab perifrazarlar qo'llangan. Jumladan: "**Vatan havosining gadosi Muzaffarxon ham, Gulzorbegim ham o'z tadbirlaridan baxt kutgan nodon qullardan edilar**" [Malik T. 2018: 164].; "**Har nima bo'lganda ham, Oysanam Kesakpolvon uchun zabt etilmagan qo'rg'on bo'lib qolaverdi. Kesakpolvonning maishatbop xotinlarga muhtojligi yo'q, «Oysanam ko'nmasa, jonsanam-da», deb ketaversa bo'lardi. Lekin juvondagi kibr (ha, u nomusni aynan kibr deb fahmlagandi) unga tinchlik bermadi**" [Malik T. 2018:175].; "**Jamshid Otabek kabi sevganida edi, Zaynabimiz Kumush kabi o'lib ketishga ming marta rozi edi. Ha, Zaynabimiz ana shunday telba muhabbat cho'risi edi**" [Malik

T. 2018:162].; "**Qadimgi Rimning sultoni Yuliy Sezar: "Xalqlarni bir-biridan ayri-ayri qilib tashlagin-u, hukmingni mazza qilib yuritaver", degan ekan**" [Malik T. 2018:585].; "**Xiyol o'tmadi. To'y bekasi otda eshikma-eshik yurdi. To'y bekasi yuziga fotiha tortdi. To'y bekasi aytgan boshqa, to'y xo'jasi aytgan boshqa**" [Murod T. 2009:105].; "**To'y bekasi aytgan boshqa, to'y xo'jasi aytgan boshqa**" [Murod T. 2009:105].; "**Yetti og'ayni botirlar**"ning onasi butun shaharga tanilgan, kelin zotini bodroq qilib qovuradigan "**general kampir**" nomini olgan xotin edi" (Ahmad S. 1972:167] kabi perifrazarlar badiiy asarlarda qo'llangan. Ma'lumki, badiiy uslub qamrovi keng. Janr va turlari